

FRANSUZ TILI BO'YICHA TA'LIM XIZMATLARINI TAQDIM ETISH TO'G'RIDA OMMAVIY OFERTA

ATAMA VA TA'RIFLAR

Ommaviy oferta – bu shartnoma tuzish bo'yicha taklif. Shartnoma ofertani (uning akseptini) shartsiz qabul qilish orqali tuziladi.

Ofertaning aksepti – ushbu Ofertaning 1.3. bandiga ko'rsatilgan harakatlarni to'liq yoki hech qanday shartlarsiz qabul qilish. Ofertaning aksepti Shartnoma tuzilishiga sababchi bo'ladi.

Bajaruvchi / O'quv markaz – 2025-yil 20-oktyabrda berilgan 7218673-son guvohnomaga asosan ta'lim xizmatlarini taqdim etuvchi.

O'quvchi/Buyurtmachi – ushbu shartnoma shartlarini qabul qilgan (ushbu ofertani akseptlagan), shuningdek bajaruvchi tomonidan tashkil etilgan Fransuz tili kurslarida fransuz tilini o'rganayotgan jismoniy shaxs, xizmatlarning oxirgi foydalanuvchisi.

Kurs – o'quv markazi hamda O'quvchi/Buyurtmachi tomonidan tanlangan va tasdiqlangan muayyan vaqt davomida o'quv markazining metodikasi bo'yicha fransuz tilini o'rgatish jarayoni (onlayn hamda oflayn shakllarda tashkil etiladi).

Web-site – o'quv markazining internet axborot-telekommunikatsiya tarmog'ida joylashgan veb sahifasi bo'lib quyidagi domen nomi (manzil, domen) orqali kirish mumkin: <https://france-tfc.uz/>. Ushbu web-site o'quvchilarga mashg'ulotlarni olib borishlari hamda o'quv markazi bilan yaqindan tanishishlari hamda ro'yxatdan o'tishlari uchun xizmat qiladi.

Placement - fransuz tilini bilish darajasini aniqlashga qaratilgan bepul protsedura.

France TCF o'quv markazi – o'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan jihozlar, materiallar, adabiyotlar va boshqa moddiy-texnika vositalari bilan jihozlangan, darslar bevosita o'tkaziladigan maxsus o'quv binosi.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga asosan ushbu hujjat **Yatt "MURODOVA SABINA NODIRBEK QIZI"** (keyinchalik matnda, France TCF o'quv markazi deb nomlanadi) har qanday jismoniy shaxsga (keyinchalik matnda O'quvchi/Buyurtmachi deb nomlanadi) nisbatan Shartnomani unda keltirilgan shartlar asosida qabul qilishga yo'naltirilgan rasmiy ommaviy taklifi (ofertasi) hisoblanadi.

1.2. Ushbu Oferta rasmiy hujjat hisoblanadi va Toshkent shahri, Mirobod tumani, A.Fitrat ko'chasi, 81V-uyda joylashgan o'quv markazida amalga oshiriladi.

1.3. O'quvchi/Buyurtmachi tomonidan o'z shaxsiga doir ma'lumotlarni o'quv markaziga taqdim etish (to'liq ismi, tug'ilgan sana, telefon raqami) o'quv markazi administratsiyasida amalga oshiriladi.

1.4 Quyidagi har qanday harakatlarning birida O'quvchi/Buyurtmachi oferta shartlarini to'liq va shartsiz qabul qilgan (akseptlagan) hisoblanadi:

- Xizmatlar uchun O'quvchi/Buyurtmachi tomonidan to'lov amalga oshirilsa;
- O'quvchi/Buyurtmachining "<https://france-tfc.uz/>" rasmiy web-sayti orqali taklif shartlari bilan tanishganligini tasdiqlasa.

1.5. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 370-moddasi to'rtinchi qismiga muvofiq, Ofertani qabul qilish Ofertada ko'rsatilgan shartlar bo'yicha shartnoma tuzishga tengdir, ushbu Ofertani qabul qilish (akseptlash) orqali shaxs ushbu Ofertaning Tomoniga aylanadi, bundan keyin O'quvchi/Buyurtmachi deb nomlanadi. O'quv markazi va O'quvchi/Buyurtmachi ham ushbu Oferta bo'yicha birgalikda Tomonlar, alohida hollarda esa Tomon deb yuritiladi.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Bajaruvchi O'quvchi/ Buyurtmachining topshirig'i bilan "France TCF o'quv markazi" da "Fransuz tili kursi» dasturi bo'yicha ta'lim xizmatini ko'rsatish (keyingi o'rinlarda «Xizmatlar» deb nomlanadi), O'quvchi/Buyurtmachi esa shaxsiy tanloviga ko'ra **onlayn** yoki **oflayn** tarzidagi o'quv kursida tahsil olish va bu xizmat uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

2.2. O'n uch yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar nomidan ushbu ofertani Buyurtmachisi sifatida faqat ularning ota-onalari (voyaga yetmaganlarning qonuniy vakillari bo'lishi mumkin bo'lgan homiylar, vasiylar yoki boshqa shaxslar) tomonidan akseptlashi mumkin.

2.3. Xizmatlar ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanuvchi "O'quv markazining fransuz tili o'qitish metodikasi"ga muvofiq ko'rsatiladi.

2.4. O'quv rejasi davomiyligi umumiy **6–8 oyni** tashkil qiladi.

2.5. O'quv markazi "<https://france-tfc.uz/>" web-saytida e'lon qilingan amaldagi narxlar ro'yxatiga muvofiq xizmatlar ko'rsatadi va O'quvchi/Buyurtmachi ushbu Ommaviy oferta shartlariga muvofiq xizmatlar uchun to'lovni amalga oshiradi.

2.6. Shartnoma qoidolari masofaviy (onlayn) va an'anaviy (oflayn) ta'lim shakllariga nisbatan teng ravishda tatbiq etiladi. Faqat muayyan ta'lim shakliga oid bo'lgan yoki o'z mohiyatiga ko'ra faqat onlayn yoxud oflayn ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan qoidalar tegishli ta'lim shakliga nisbatan qo'llaniladi.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

3.1. O'quv markazining huquq va majburiyatlari.

3.1.1. O'quv markazi ushbu Ommaviy ofertaning 2.1-bandida nazarda tutilgan xizmatlarni tashkil etish va tegishli tarzda bajarilishini ta'minlash majburiyatini oladi.

3.1.2. O'quv markazi O'quvchi/Buyurtmachini bosqich yakunida sinovdan o'tkazish va test natijalariga asosan uni «Fransuz tili kurslarida o'qitish Qoidolari»ga muvofiq keyingi ta'lim bosqichiga o'tkazish/joriy bosqichda qoldirish/o'qishni davom ettirishni rad etish va ushbu Ofertani bir tomonlama tartibda bekor qilishi mumkin.

3.1.3. O'quv markazi o'qish uchun to'lovni o'z vaqtida amalga oshirilmagan talabani darslarga, shaxsiy kabinetiga kirishini cheklash huquqiga ega. O'quvchi/Buyurtmachi darslardan chetlatilgan taqdirda, agar to'lovlarni amalga oshirib, O'quv markazi xizmatlaridan foydalanishni davom ettirishni istasa, O'quv Markazi uni chetlatilishidan oldin o'qib turgan guruhga qaytarishga harakat qiladi. Biroq u o'qigan guruhda bo'sh o'rinlar qolmaganligi sababli yoki talaba guruh darslarini yetkazib ololmasligi ehtimoli bo'lgan hollarda O'quv markazi uni boshqa yangi guruhlarga biriktirishga haqli.

3.1.4. O'quv markazi O'quvchi/Buyurtmachining rozilgisiz o'qitishning butun davri davomida o'qituvchini almashtirishga huquqiga ega. Ma'lum bir sabablarga ko'ra, asosiy o'qituvchi darslarni o'ta olmagan taqdirda, o'quv markazi o'sha darslar uchun o'rindosh yoki yordamchi o'qituvchi tayinlash huquqiga ega.

3.1.5. O'quv markazi, agar O'quvchi/Buyurtmachi talab qilgan holatlarda ham, o'qituvchini almashtirmaslik huquqiga ega.

3.1.6. O'quv markazi o'quv mashg'ulotlari jadvalini va qanday tartibda olib borilishini belgilaydi. O'quv xonalari o'zgartirilishi o'quv markazi tomonidan mustaqil hal qilinadi.

3.1.7. O'quv markazi dars mashg'ulotlari jadvaliga o'zgartirish kiritilishi zarur bo'lgan taqdirda bu haqida O'quvchi/Buyurtmachini oldindan xabardor qilishi, o'tkazilmay qolgan mashg'ulotning o'rnini qoplash maqsadida qayta tashkil etiladigan mashg'ulotning sanasi va vaqtini belgilashi hamda bu haqida O'quvchi/Buyurtmachiga ma'lum qilishi shart.

3.1.8. O'quvchi/Buyurtmachining bilim darajasini tekshirishi va baholashi hamda mazkur jarayonning qanday tartib va shaklda amalga oshirilishini belgilash huquqiga ega.

3.1.9. Agar guruhda 7 nafardan kam o'quvchi qolsa, O'quv markazi guruhni yopish va o'quvchilarni boshqa guruhlarga taqsimlash huquqiga ega.

3.1.10. Agar O'quvchi/Buyurtmachi darslarni qoldirsa, O'quv markazi u tomonidan qoldirilgan dars uchun amalga oshirgan to'lovlarni boshqa shaxs hisobiga o'tkazish bo'yicha tranzaksiyalarni amalga oshirmaydi.

3.1.11. O'quvchi/Buyurtmachi tomonidan sababsiz qoldirilgan darslar uchun O'quv markazi dars o'tib berishni o'z zimmasiga olmaydi (agarda darsning video yozuvi bo'lsa Tinglovchiga berilishi mumkin).

3.1.12. O'quv markazi O'quvchi/Buyurtmachining sertifikatlari yoki boshqa yutuqlaridan faqat reklama materiallari sifatida foydalanish huquqiga ega.

3.1.13. O'quv markazi mustaqil ravishda o'quv jarayonini amalga oshirish, baholash tizimlari, O'quvchi bilimini tekshirish shakllari, tartibi va davriyligini tanlash huquqiga ega.

3.1.14. O'quvchi/Buyurtmachi ushbu Ofertaning amal qilish muddati davomida qonun, ushbu Oferta shartlarini va an'anaviy normalarni buzgan bo'lsa, O'quv markazi O'quvchi/Buyurtmachini darslardan chetlashtirishga/shaxsiy kabinetga kirishini cheklashga, to'lovlarni qaytarmaslik yoki muzlatib qo'ymaslik yoxud boshqa shaxsga o'tkazmaslikka haqli.

3.1.15. Agar O'quvchi/Buyurtmachi ta'lim jarayonida O'quv markazi xodimlarini yoki boshqa O'quvchi/Buyurtmachilarni og'zaki yoki yozma ravishda haqorat qilganligi, shu jumladan O'quv markaz obro'siga va nomiga ta'sir qiladigan "Negative" so'zlarni yozma yoki og'zaki ishlatganligi dalillar va guvohlar orqali isbotlansa, O'quv markazi O'quvchi/Buyurtmachini darslardan chetlashtirishga/shaxsiy kabinetga kirishini cheklashga, to'lovlarni qaytarmaslik yoki muzlatib qo'ymaslik yoxud boshqa shaxsga o'tkazmaslik huquqiga ega.

3.1.16. O'quvchi/Buyurtmachi kurs davomida 3 marotaba yakuniy imtihonlardan qoniqarsiz natijani qayd etsa, hamda imtihondan yiqilishi sababi o'quvchi yetarlicha harakat qilmayotgani deb topilsa, o'quvchi bilan tuzilgan shartnoma bir yil muddatga bekor qilinishi mumkin. Shuningdek, ushbu holatda O'quv markazi to'lovlarni qaytarmaslik yoki muzlatib qo'ymaslik yoxud boshqa shaxsga o'tkazmaslikka haqli.

3.1.17. O'quv markazi O'quvchi/Buyurtmachi kurs uchun to'lovni amalga oshirib, kamida bitta darsda ishtirok etganidan so'ng, kurs mazmuni, o'qitish uslubi yoki boshqa subyektiv sabablarga ko'ra kursni davom ettirishni istamasa, to'langan mablag'ni qaytarmaslik huquqiga ega.

3.1.18. O'quv markazi tomonidan ushbu Ommaviy Ofertaga o'zgartirilishi mumkin. Kiritilgan o'zgarishlar Ommaviy Oferta matnining bir qismi sifatida e'lon qilinishi bilan kuchga kirgan hisoblanadi. Binobarin, kiritilgan eski shartnomalarga ta'sir etmaydi. O'zgartirish kiritilgandan keyin yangi shartnomalar tuzilganda yoki eski shartnomalar yangilanganda, kiritilgan o'zgartirishlar shartnomaning bir qismi hisoblanadi.

3.1.19. O'quvchi (Buyurtmachi) bir oy davomida kamida bir marta yoki undan ko'proq marta uy vazifasini bajarmagan yoki uch marta dars qoldirgan taqdirda, oldindan ogohlantirilgach, xizmatlar ko'rsatishni to'xtatish va mashg'ulotlarga kirishni cheklash. Bunda ilgari to'langan mablag' qaytarilmaydi, muzlatilmaydi va keyingi oyga o'tkazilmaydi.

3.1.20. O'quv markazi O'quvchi (Buyurtmachi)ning shaxsga doir ma'lumotlarini sir saqlashi va uni uchinchi shaxslarga taqdim etmasligi shart.

3.1.21. Agar O'quv markazi faoliyatini vaqtincha yoki to'liq to'xtatsa, qolgan darslar 6 (olti) oy ichida kompensatsiya qilinadi.

3.2. O'QUVCHI/BUYURTMACHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.2.1. O'quvchi/Buyurtmachi Shartnoma tuzilgunga va to'lov amalga oshirilgunga qadar, ushbu oferta mazmuni va shartlarini "<https://france-tfc.uz/>" veb-saytida joylashtirilgan O'quv markazi xizmatlari narxi bilan tanishishi shart.

3.2.2. O'quvchi/Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lovni amalga oshirishi O'quvchi/Buyurtmachi tomonidan ushbu Oferta shartlari bilan tanishish va qabul qilinishini anglatadi.

3.2.3. O'quvchi/Buyurtmachi har oy o'quv mashg'uloti uchun to'lovni amalga oshirishga majburdir.

3.2.4. O'quvchi/Buyurtmachi o'qituvchi tomonidan darslarga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha berilgan mustaqil topshiriqlarni bajarishga, tasdiqlangan jadvalga muvofiq mashg'ulotlarda ishtirok etishga majbur.

3.2.5. O'quvchi/Buyurtmachi ta'lim doirasida taqdim etilgan materiallar va ma'lumotlarni (qog'oz, elektron yoki boshqa shaklda) tijorat yoki notijorat maqsadlarda (nusxalash, nashr qilish, Internet-resurslarga joylashtirish, uchinchi shaxslarga berish yoki qayta sotish ko'rinishida) tarqatmaslik, olingan materiallar asosida tijoriy mahsulotlarni yaratish va ushbu ma'lumotlardan shaxsiy foydalanishdan tashqari har qanday usulda foydalanmaslik majburiyatini oladi.

3.2.6. Agar O'quvchi/Buyurtmachi guruhning tugatilishi munosabati bilan taklif qilingan variantlardan o'ziga mos bo'lgan boshqa guruhga o'tishga qaror qilsa, u holda O'quvchi/Buyurtmachi kurs uchun to'lovni amalga oshirish va ushbu guruhda o'qishni davom ettirish majburiyatini oladi.

3.2.7. O'quvchi/Buyurtmachi "Fransuz tili kurslarida o'qitish Qoidolari"ga rioya etish majburiyatini oladi.

3.2.8. O'quvchi/Buyurtmachi O'quv markazi tomonidan berilgan o'quv-uslubiy materiallarni va O'quv markazining o'quv jarayoniga kirish huquqini yoxud qonun bilan himoyalangan sirli ma'lumotlar uchinchi shaxslarga bermaslik majburiyatini oladi.

3.2.9. O'quvchi/Buyurtmachi O'quv markazining dastlabki talabiga binoan u tomonidan O'quv markazining mol-mulkiga yetkazilgan har qanday moddiy zarar to'liq hajmda O'quvchidan undiriladi.

3.2.10. O'quvchi/Buyurtmachi O'quv markazi hududida umum e'tirof etilgan odob axloq normalariga amal qilishi kerak. (Baland ovozda musiqa tinglashi, video va filmlar tomosha qilishi, shovqin ko'tarishi, o'quv markazi hududida tamaki va alkogol mahsulotlarni iste'mol qilish taqiqlanadi).

3.2.11. O'quvchi/Buyurtmachi O'quv markazining mulkidan o'quv mashg'ulotlarini amalga oshirish maqsadida foydalanish huquqiga ega. O'quvchi/Buyurtmachi darsga kelib ketishi vaqtida binodan (xonalardan) odob doirasida foydalanishi, bino va mulkka zarar yetkazmasligi shart. Zarar yetkazgan holatda qonunchilikka muvofiq zararni qoplashga majbur.

3.2.12. O'quvchi/Buyurtmachi o'quv jarayoni bilan bog'liq masalalar yuzasidan O'quv markazi xodimiga murojaat qilish huquqiga ega.

3.2.13. O'quvchi/Buyurtmachi o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etish uchun zarur bo'lgan internet tarmog'iga barqaror ulanish, texnik vositalarning mavjudligi va soz holatda ishlashini mustaqil ravishda ta'minlashi shart. Mazkur texnik vositalar yoki internet aloqasi bilan bog'liq nosozliklar tufayli yuzaga kelgan uzilishlar, dars mashg'ulotlarida ishtirok eta olmaslik holatlari uchun O'quv markaz javobgar hisoblanmaydi (Ta'lim xizmatlari onlayn shaklda ko'rsatilganda).

3.2.14. O'quvchi/Buyurtmachi bilim, ko'nikmalarni baholash, shuningdek, ushbu baholash mezonlari haqida to'liq va ishonchli ma'lumot olish huquqiga ega.

3.2.15. O'quvchi/Buyurtmachi o'quv mashg'ulotiga oid savollar bilan O'quv Markazi (yoxud o'qituvchi-xodim)ga telefon yoki ijtimoiy tarmoq orqali murojaat qilishi mumkin (shaxsiy hayotga, shaxsiy munosabatlarga yoki ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan boshqa masalalarga oid yozishmalar olib borilishiga yo'l qo'yilmaydi).

3.2.16. Individual ta'lim shaklida tahsil oluvchi O'quvchi/Buyurtmachi dars boshlanishidan kamida 2 (ikki) soat oldin xabardor qilgan holda, bir o'quv oyi davomida uzrli yoki uzrsiz sabablarga ko'ra ko'pi bilan 3 (uch) ta darsni qoldirish huquqiga ega. Mazkur darslar kurs oyi yakuniga qadar qayta o'tkazib beriladi. O'quvchi/Buyurtmachining shaxsiy sabablari tufayli rejalashtirilgan 12 (o'n ikki)ta darslar o'tkazilmagan taqdirda ham, oylik kurs to'lovi to'liq hajmda amalga oshiriladi.

3.2.17. O'quvchi/Buyurtmachi darslarni qoldirmaslik va har bir dars boshlanishidan oldin uy vazifasini kamida 80 foiz darajada tayyorlab kelish, kurs o'quv rejasini shaxsan va vijdonan to'liq o'zlashtirish va kursni o'zlashtirish jarayonida berilgan topshiriqlarni vijdonan bajarish.

4. XIZMATLAR NARXI VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

4.1. Xizmatlarning narxi O'quv markazining rasmiy web-sahifasida: "<https://france-tfc.uz/>" ko'rsatilgan.

4.2. Bir oy mobaynida 12 ta mashg'ulot uchun to'lovlar O'quvchi/Buyurtmachi O'quv markazidan ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab amalga oshirilishi shart. Shuningdek, ushbu kun har oyning to'lovi amalga oshiriladigan kuni hisoblanadi. Ba'zi oylarda dars

mashg'ulotlari kalendar oyning uzunligiga qarab 13-14 tagacha o'tiladi va ushbu mashg'ulotlar uchun to'lov undirilmaydi.

4.3. O'quvchi/Buyurtmachi to'lov summasini har oyning dastlabki darslar boshlangan sanasida amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmasa, O'quv markazga oldindan ma'lum qilishi va to'lovni amalga oshirish muddatini taraflar o'rtasida belgilab olishi shart.

4.4 O'quvchi/Buyurtmachi ushbu shartnomaning 5.11 bandida ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov amalga oshiradi.

4.5. O'quvchi/Buyurtmachi tomonidan qoldirilgan darslar uchun to'lov qaytarilmaydi.

4.6. Xizmatlar uchun to'lov naqd va naqdsiz (bank kartasi va onlayn to'lov ilovalari) ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin. To'lov amalga oshirilganda uni tasdiqlovchi tegishli hujjatlar Buyurtmachi/O'quvchi tomonidan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 24 soat ichida taqdim etilishi kerak.

4.7. 3.1.4. banddagi holatda ham o'quv markaz o'z majburiyatini bajargan hisoblanadi va o'tilgan darslar uchun to'lov to'liq hisobga olinadi.

4.8. O'quvchi/Buyurtmachi (faqat individual shaklda o'qiyotgan) 1 marotaba sinov darslarida tekin qatnashishi mumkin. Sinov darsiga qatnashgandan so'ng guruh ma'qul bo'lib darslarni davom ettirish istagini bildirsa yoki agarda sinov darsi O'quvchi/Buyurtmachiga ma'qul kelmasa, qatnashilgan sinov darsi uchun to'lov undirilmaydi.

4.9. Ta'lim narxlarini istalgan vaqtda o'zgartirish. Bunda O'quv markazi oy o'rtasida yangi narxlar bo'yicha qo'shimcha to'lov talab qilish huquqiga ega emas. Yangi narxlar keyingi oyning boshidan kuchga kiradi.

5. UMUMIY TARTIBLAR

5.1. Agar dars mashg'ulotlari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan rasmiy bayram kunlariga to'g'ri kelsa yoki o'quv markazining binosiga kirish vaqtincha cheklansa, ushbu kunlarda sababli darslar o'tkazilmaydi. O'tkazilinmagan darslar kelgusi oylarda darslar soni 12 tadan ko'p bo'lish hisobiga qoplab beriladi. Agar o'quvchi kelgusi oydan boshlab o'qishni davom ettirmasa, bekor qilingan dars(lar)uchun to'langan mablag' o'quvchiga to'liq qaytarilmaydi.

5.2. O'quv markazi bir oy davomida mini va katta guruhlarga 80 daqiqa; individual shakldagi darslar esa 60 daqiqadan 12 ta mashg'ulot o'tkaziladi.

5.3. O'quv markazi taqdim etilgan xizmat Tinglovchi/Buyurtmachi kutgan natijaga to'g'ri kelmaganligi yoki uning subyektiv bahosi uchun javobgar emas. Bunday farq yoki salbiy subyektiv baho to'langan mablag'ni qaytarish yoki muzlatish asosini tashkil qilmaydi.

5.4. Tinglovchi TCF Canada rasmiy imtihonida barcha bo'limlar bo'yicha B2 yoki undan yuqori natija qayd etgan taqdirda, quyidagi miqdorda keshbek olish huquqiga ega bo'ladi:

– **B2 daraja** — 500 000 (besh yuz ming) so'm, bunda Tinglovchi o'quv markazida kamida **6 (olti) oy** uzluksiz tahsil olgan bo'lishi shart;

– **C1 daraja yoki undan yuqori** — 1 000 000 (bir million) so'm, bunda Tinglovchi o'quv markazida kamida **9 (to'qqiz) oy** uzluksiz tahsil olgan bo'lishi shart.

Keshbek TCF Canada rasmiy natijalari tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgandan so'ng to'lanadi.

5.5 Keshbek olgan Tinglovchilar boshqa fransuz tili o'quv markazlarining media platformalarida shu yoki o'xshash natijalarni namoyish eta olmaydi. Bunday holat to'langan mablag'ning to'liq qaytarilishiga olib keladi.

5.6. Bonuslar naqd pul, bank hisobiga o'tkazish va boshqa shakllarda berilishi mumkin. TCF Canada natijalari bo'yicha bonuslar bir martalik keshbek bo'lib, bir marta olingach, kelajakdagi yangilangan natijalar uchun boshqa mukofot olinmaydi.

5.7. Agar O'quvchi/Buyurtmachi ma'lum miqdordagi darslarni o'tkazib yuborsa va o'qishni davom ettirmoqchi bo'lsa, u holda 12 ta mashg'ulot uchun to'liq miqdorda to'lov undiriladi.

5.8. O'quv markazi ro'yxatdan o'tishda tinglovchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va mazmuni uchun javobgar emas. O'quvchi/Buyurtmachi ro'yxatdan o'tishda taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'ri ekanligiga javobgardir.

5.9. Tomonlar shartnoma shartlarini bajarishga to'sqinlik qiluvchi qiyinchiliklar yuzaga kelganda, bir-birini darhol xabardor qilishi va zarur choralarni ko'rish shart.

5.10. Shartnoma bo'yicha barcha shartlar, majburiyatlar va huquqlar nafaqat oflayn (bevosita), balki onlayn (masofaviy) ta'lim shakliga ham tatbiq etiladi, agar boshqa holat aniq ko'rsatilmagan bo'lsa.

6. BOSHQA SHARTLAR

6.1. Bajaruvchi Buyurtmachi/O'quvchi oldida quyidagi hollarda javobgar hisoblanmaydi:

6.1.1. Kursning yakuniy natijalari qoniqarli bo'lmaganligi O'quvchi/Buyurtmachining aybi bilan bo'lsa(darslarga ishtirok etmaslik, uy vazifalarini bajarmaslik, Kurs dasturini bajarmaslik va h.k.);

6.1.2. Agar majburiyatlarni lozim darajada bajarmaslik O'quv markazining aybisiz vujudga kelsa;

6.1.3. Agar majburiyatlarni lozim darajada bajarilmaganligi O'quvchi/Buyurtmachining aybi bilan sodir etilgan bo'lsa;

6.1.4. Fors-major holatlari yuzaga kelganda;

6.2. O'quv markazi O'quvchi/Buyurtmachiga ushbu Ommaviy oferta bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni quyidagilarga asosan rad etishga haqli:

6.2.1. Ushbu ofertada nazarda tutilgan majburiyatlarni bir necha marta buzsa, bu o'z navbatida O'quv Markazi tomonidan majburiyatlarning bajarilishini qiyinlashtirsa va O'quv markazining boshqa o'quvchilari va xodimlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzsa;

6.2.2. Ommaviy ofertada belgilangan to'lovni amalga oshirish muddatlarini buzsa;

6.2.3. Tomonlar o'z vaqtida zarur choralarni ko'rish uchun ushbu Ommaviy oferta shartlarini bajarishga to'sqinlik qilayotgan holatlar haqida bir-birlarini zudlik bilan xabardor qilish majburiyatini oladilar.

7. FORS-MAJOR

7.1. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar, agar bu yengib bo'lmas kuch holatlari natijasida sodir bo'lsa, jumladan: yong'inlar, zilzilalar, epidemiya va pandemiya holatlari, harbiy harakatlar va boshqalar natijasida, agar bu holatlar ushbu Shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir qilgan bo'lsa.

7.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish imkonsiz bo'lgan Tomon o'n kun ichida yuqorida ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelganligi va bekor qilinganligi to'g'risida ikkinchi tomonni xabardor qilishi shart.

8. OFERTA SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA KO'RSATILGAN XIZMATLARNI TOPSHIRISH-QABUL QILISH TARTIBI.

8.1. O'quvchi/Buyurtmachi ushbu Ommaviy ofertaning barcha shartlari unga tushunarli ekanligini kafolatlaydi va O'quvchi/Buyurtmachi shartlarni hech qanday boshqa shartlarsiz va to'liq qabul qiladi.

8.2. Shartnoma tuzilgan (oferta akseptlangan) paytdan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

8.3. Ushbu Ommaviy oferta yuqorida qayd etilgan maqsadlar doirasida, cheklanmagan muddatga tuziladi.

8.4. Oferta shartnomasini bekor qilishda shartnomani bekor qilish to'g'risidagi dalolatnoma tuzilmaydi va tomonlar uni imzolamaydi.

8.5. Fransuz tilini o'rgatish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar tugatilgandan so'ng ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risidagi dalolatnoma tuzilmaydi va imzolanmaydi.

8.6. Ushbu Ommaviy ofertani bajarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizo va kelishmovchiliklar Tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Agar ular muzokaralar yo'li bilan bartaraf etishning iloji bo'lmasa, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etilishi kerak.

9. REKVIZITLAR

Yatt "MURODOVA SABINA NODIRBEK QIZI" (keying o'rinlarda, France TCF o'quv Markazi) 2025-yil 20-oktyabrda berilgan 7218673-son guvohnomaga asosan ta'lim xizmatlarini taqdim etuvchi hisoblanadi.

Yuridik manzili: Toshkent shahri, Mirobod tumani, A.Fitrat ko'chasi, 81V-uy.

STIR: 63001025310027

Tel.: +998 (94) 738-22-21

Direktor: S.N. Murodova